

ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
O'LIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI



“ЖАҲОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ”

мавзусидаги
халқаро илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

2023 йил 11 май

Ўзбекистон Республикаси
Андижон шаҳри



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР
ВАЗИРЛИГИ
АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
“ЖАҲОН ТАРИХИ” КАФЕДРАСИ**

**“ЖАҲОН ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛАРИ”**

**Халқаро илмий-амалий анжумани
материаллар тўплами
11 май 2023 йил**

**“АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ
ВСЕМИРНОЙ ИСТОРИИ”**

**Материалы международной
научно-практической конференции
11 мая 2023 года**

“CURRENT PROBLEMS AND PROSPECTS OF WORLD HISTORY”

**Materials of the international
scientific and practical conference
May 11, 2023**

“Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари ва истиқболлари”. Халқаро илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. А.: АДУ, 2023. – 774 бет.

Ушбу тўплам “Жаҳон тарихининг долзарб муаммолари ва истиқболлари” мавзусида бўлиб, жаҳон тарихидаги тадқиқотларнинг энг муҳим устувор йўналишларини ажратиб кўрсатиш, жаҳон тарихининг турли давларини тадқиқ қилишда энг сўнгги тушунчаларни жорий этиш, илмий мактаблар доирасини, муаллифларни, энг муҳим китобларни, дарсликларни, жаҳон тарихининг долзарб масалалари бўйича тадқиқотларнинг ҳозирги тенденцияларини кўрсатиш, Ғарб ва Шарқ хорижий мамлакатлари жаҳон тарихининг энг муҳим асосий муаммоларини каби мавзуларга оид тадқиқот ишлари ва илмий қарашлар акс эттирилган материалларнинг баёни келтирилган.

Тўпламга олий ўқув юртларида иқтисодий муаммолар бўйича илмий изланишлар олиб бораётган профессор-ўқитувчилар, докторантлар, тадқиқотчилар, магистр ва талабаларнинг илмий изланишлари натижаси киритилган.

Тўпламда келтирилган матераилларнинг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар ва келтирилган меъёрий ҳужжатларнинг ҳаққонийлигига, танкидий фикр-мулоҳазалар ва таклифларга муаллифнинг ўзлари маъсулдир.

Маъсул муҳаррир: Юлдашев. А.С., биология фанлари доктори, профессор АДУ ректори
Таҳрир хайъати аъзолари:

1. Каримжонов И.А. – АДУ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, ф.м.ф.д., доцент.
2. Муллажонов Р.В. – АДУ ўқув ишлари бўйича проректори ф.м.ф.н., доцент
3. Собиров Ш.К. – АДУ иқтисодиёт ва молия ишлари бўйича проректори
4. Махкамов М.К. – АДУ Ахборот технологиялари бўйича проректори, ф.м.ф.н., доцент
5. Шамситдинов Р.Р. – АДУ тарих факултети декани, т.ф.н., доцент
6. Хамраева Т.Р. – АДУ “Жаҳон тарихи” кафедраси мудир, т.ф.н., доцент
7. Мамажонов А. – “Жаҳон тарихи” кафедраси доценти
8. Мирзаев А. – катта ўқитувчи (PhD)
9. Ботиров М.А. - катта ўқитувчи
10. Смесова Е.А. – “Жаҳон тарихи” кафедраси доценти
11. Исакова Ф.Р. - катта ўқитувчи (PhD)
12. Мусаев Д.В. - катта ўқитувчи
13. Абдуллаев Б.Х. - катта ўқитувчи
14. Тургунов А.Ғ. - катта ўқитувчи
15. Мамасолиева Г.А. - катта ўқитувчи
16. Абдувалиев Х.Р. - катта ўқитувчи
17. Алишеров А.А. - ўқитувчи
18. Собиров С.А. - ўқитувчи

21	Ибраимова С.С. Нурдинова К.Х.	Религиозные движения «Таблиг джамаат» и йакинникар» в Кыргызстане	138
22	Камаева К.К.	Дипломатическое отношение Кыргызской Республики с Республикой Кореи	143
23	Мамажонов А.	Индустриал жамиятда шаҳарларнинг ўсиши	151
24	Мирзасев А.	Пахтачилик тарихига оид архив ҳужжатларини манбашунослик таҳлили (мустанлақа давр мисолида)	154
25	Мансуров М. Ш.	Ўзбекистонда 30-70-йилларда туризмнинг аҳволи (Фарғона водийси мисолида)	159
26	Мамажонов С., Иминова Р.А.	Фермерские хозяйств в Узбекистане их деятельность	165
27	Мамасолиева Г.А.	Аграрная отрасль в начале XX века (на примере Балыкчинской волости Ферганской области)	170
28	Мамадалиев А. А.	Реализация первой цели в области устойчивого развития ООН в Кыргызстане: повсеместная ликвидация нищеты во всех ее формах	173
29	Махкамов А.	Абдурахим Юсуфзоданинг Афғонистон амирлигидаги дипломатик фаолияти тарихидан	179
30	Назирова Ш.Р.	Араб цивилизацияси ва маданиятининг асослари ва халқаро микёсда тарқалиш омиллари	186
31	Нурматов О.Т.	Фарғона водийси вилоятларида қўшма корхоналарнинг ташкил топиши ва фаолияти	190
32	Нышанбай Ж. Н.	Героические пути героев 1986 года	195
33	Олимжонова М.	Миграционные процессы в Европе во второй половине XX века	203
34	Пилипчук Я.В.	Болоховская земля и ее князья	208
35	Саматов Ш.	Ўзбекистонда фанлар академиясини ташкил этишнинг ғоявий асослари ва стратегик мақсадлари	217
36	Тургунов А.	Процессы освоения и орошения земель в Центральной Фергане в 50-60 годах XX века	220
37	Тилаволдиев А.У.	Корея Республикасининг демография сиёсати ва унинг иқтисодий таъсири	224
38	Тўраев М.	Иккинчи жаҳон уруши йилларида совет ҳукуматининг тиббий соҳасидаги сиёсати	228
39	Утаганов Б.	Роль дипломатических отношений между византийской империей и тюркским ханством в мировой истории	232
40	Фирсов Т.	Деятельность видных русских статистиков в развитии статистических исследований	237
41	Хасанов Ж.	Ўзбекистонда яшаган бошқа миллат вакилларининг Москва-Волга канали қурилишидаги иштироки	242
42	Хошимов Ҳ. Хўжаназаров М.,	Зарафшон воҳасининг янги тош даври топилма жойлари	245
43	Хайруллаева И. Ф.	Ҳинд хотин-қизлар таълими: ютук ва камчиликлар	252
44	Ҳамдамов А.	Жаҳон тарихининг ривожланиш истикболлари	257
45	Худойбердиев И.И.	1978-2001 йилларда Афғонистон ва Покистон муносабатларининг динамикаси	261

Xayrullayeva Iroda Faxriddinovna
TDSHU tayanch doktoranti
Tel:(+99899)-205-67-01
fahriddinovnairoda96@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola Hindiston ta'lim tizimi, xususan mamlakat jamiyatida istiqomat qilayotgan xotin-qizlar ta'limiga bag'ishlanadi. Bundan tashqari maqolada bu sohadagi amalga oshirilgan dasturlar, yutuq hamda kamchiliklarni tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: hind xotin-qizlar ta'limi, ta'lim dasturlari, ijobiy jihatlar, sohadagi stereotiplar.

Аннотация. Данная статья посвящена системе образования Индии, в частности образованию женщин, проживающих в обществе страны. Кроме того в статье приводится анализ реализованных программ, достижений и недос

Ключевые слова: образование индийских девочек, обр
положительные стороны, стереотипы в данной сфере.

253 из 774

Abstract. This article is devoted to the education system of India, in particular to the education of women living in the society of the country. In addition, the article provides an analysis of implemented programs, achievements and shortcomings in this field.

Key words: education of Indian girls, educational programs, positive aspects, stereotypes in the field.

Xotin-qizlarning bilim olishi ularning jamiyatdagi mavqeyini o'zgartirish yo'lining asosiy richagi hisoblanadi. Bilimli ayollar jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun juda muhim rol o'ynashi mumkin. Ta'lim ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'rnini tiklash vositasi sifatida tengsizlik va nomutanosibliklarni yo'qolishiga imkon beradi. Bu ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, farovonlik, rivojlanish uchun asosiy omil hisoblanadi. Ta'lim ayollarga jamiyatdagi ko'pgina eshiklar ochilishiga imkon beradi. Bunday holat albatta xotin-qizlar imliy salohiyatini oshirish hisobigagina erishiladi. Hindistonda xotin-qizlarning jamiyatdan chetda qolib ketishini oldini olishda ta'lim sohasi asosiy rol o'ynaydi. Ushbu maqolada Hindistonda xotin-qizlar ta'limiga oid mavjud holat aks ettiriladi.

Davlat, jamiyat va oila taraqqiyotida ayollarning o'rni kata ahamiyat kasb etadi. Fikrimiz dalili sifatida, bugungi kunda dunyoning 8 milliard aholisining 49,5 foizini[1] xotin-qizlar tashkil etishini misol tariqasida keltirishimiz mumkin[2]. Mamlakatda demokratiya muvaffaqiyatga erishishi uchun erkaklar bilan birga ayollar ham ta'lim olishlari zarur. Ta'lim olgan ayollar nafaqat o'z hayot yo'llari, xususan, oila, jamiyat, davlat kelajagining ham rivojlanishida turtki vazifasini o'taydi.

Ko'pgina sharq mamlakatlari singari Hindistonda ham ayollarning savodxonlik darajasi erkaklarnikidan past. O'g'il bolalarga qaraganda qizlar kamroq maktabga qatnaydi hamda o'quv yillarida iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatlar sabab ularning ko'pchiligi o'qishni tashlab ketishadi. Ayollar davlat taraqqiyotida muhim

o'rin tutadi. XXI asrga kelib mamlakat iqtisodiy boyligi nafaqat erkaklarga, balki ayollar mehnatiga ham bog'liq. Milliy statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, Hindistonda ayollarning savodxonlik darajasi 70,3 foizni, erkaklarniki esa 84,7 foizni tashkil qiladi[3]. Bu bo'shliq Hindistondagi ayollarning ta'lim darajasidagi nomutanosiblikni ifodalaydi.

Mamlakatda ayollarning ta'lim olishi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bilan to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Ayollar bilimli bo'lsa, ular o'zlarinig moliyaviy va uy xo'jaliklarini yaxshiroq boshqarishlari mumkin. Hindistonda ayollar ta'limi muhimligining bir qancha sabablari mavjud. Quyida bu sabablarni keltirib o'tsak:

Normativ huquqlar: ta'lim mamlakatdagi har bir fuqaroning asosiy huquqidir. Barcha xotin-qizlar tabaqasi, ijtimoiy qatlami, oilaviy ahvoli va yoshidan qat'iy nazar, ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim maqomga asoslangan imtiyoz emas, balki asosiy inson huquqidir.

Tenglik: ayollarning ta'lim olishi jamiyatda gender tenglikni ta'minlaydi. Aksariyat hind oilalarida o'g'il bolalar ta'lim olishi ta'minlanadi, ammo qizlarning ta'lim olish masalasi biroz orqada. Bu esa yoshlikdanoq qizlar o'g'il bolalarga qaraganda jamiyatda ancha past mavqega ega degan noto'g'ri tushunchaning shakllanishi nuqtasi hisoblanadi. Ko'pgina o'g'il bolalar va erkaklarda tarbiyalanadigan ustunlik tuyg'ulari ko'pincha bu yoshlikdagi tengsizliklardan kelib chiqadi.

Imkoniyat va mustaqillik: ayollar bilimli bo'lsagina o'zlarini ishonchli va kuchli his qilishlari mumkin. Ular o'z pullarini topishlari uchun ko'nikmalarni o'rganishlari mumkin. Bu ularni mustaqil va erkakka tayanmasdan o'zlariga g'amxo'rlik qilish qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari oila iqtisodivotiga ham foyda keltirib, oilada shaxs sifatida o'rin topishiga ham imke

Ruhiy va jismoniy farovonlik: o'qimishli ayol o'zi va jismoniy salomatligiga g'amxo'rlik qilishga ko'proq qodi

254 из 774

Oilani rejalashtirish: Xotin-qizlarga ta'lim berish orqali erta turmush qurish va erta farzand ko'rish kabi jamiyatdagi muammolarga yechim bo'ladi. Bu esa o'z navbatida voyaga yetmagan qiz bolalar va chaqaloqlar o'limi sonini kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng asta sekin barcha sohalarda, shuningdek, xotin-qizlar ta'limi sohasida ham ko'pgina qonun, loyihalarni ishlab chiqdi. Xususan, ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlari "Ta'lim olish huquqi" bilan kafolatlandi. Shuningdek, 1948 yil Konstitutsiyaga 36-modda, 1949 yilda esa 45-modda kiritildi. Unga ko'ra, Har bir fuqaro bepul boshlang'ich ta'lim olish huquqiga ega va davlat ushbu Konstitutsiya qabul qilingan kundan boshlab o'n yil ichida barcha bolalar o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar bepul va majburiy ta'lim olishlarini ta'minlashga harakat qiladi[4].

Hindistonda ayollarning savodxonlik darajasi har yili asta-sekin o'sib bormoqda. Bu ikki narsani aks ettiradi - biri odamlarning, ayniqsa, qizlarini

boshlang'ich ta'limga yuborayotgan qizlarning ota-onalari ongida sekin bo'lsa-da barqaror o'zgarish sodir bo'layotganligi. Ikkinchisi, maktablar, universitetlar va muassasalarda qizlar va ayollar uchun boshlang'ich va qo'shimcha ta'lim olish imkoniyatlari kengaytirilayotganligidir.

Hindiston mamlakati nafaqat hududiy jihatdan keng, shu bilan birgalikda turli xil ko'p miqdordagi millat, elat va din vakillari istiqomat qilayotgan davlat hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatdagi shtatlarning istimoiy-siyosiy hayoti turlicha, shuningdek, xotin-qizlar ta'limi sohasi ham bundan mustasno emas. Misol uchun, Kerala (93.91 %), Lakshadvip (92.28%) va Mizoram (92.28%) shtatlarida xotin-qizlar ta'lim olish ko'rsatkichi yuqori darajada bo'lsa, Bihar (63.82%), Arunachal-Pradesh (66.95%) hamda Rajastan (67.06%) shtatlari eng quyi ko'rsatkichlarni qayd etadi[5].

Bugungi kunda Hindiston xotin-qizlar va bola ro'yxatidan o'tgan bir nechta xotin-qizlar imkoniyatlarini k dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan[6],

✓ Beti Bachao, Beti Pathao (Qizni qutqar, qizni tarbiyala) – Hindiston hukumati tomonidan 2015 yil 22 yanvarda boshlagan dastur. U asosan Uttar-Pradesh, Haryana, Uttarakhand, Panjob, Bihar va Dehlidagi klasterlarga mo'ljallangan[7];

✓ One Stop Centre Scheme (Bir oyna markazi) - ushbu dastur gender asosidagi zo'ravonlikka qarshi qaratilgan. 2015 yil 1 apreldan boshlab o'z faoliyatini yuritib keladi. Dasturning asosiy maqsadi zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga keng ko'lamli xizmatlardan foydalanishni osonlashtirishdan iborat[8];

✓ Women Helpline Scheme (Ayollar ishonch telefoni) – zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarga qaratilgan va butun mamlakat bo'ylab xotin-qizlar bilan bog'liq hukumat dasturlari orqali 24 soat davomida zudlik bilan favqulotda yordam ko'rsatishga mo'ljallangan yagona call markazi;

✓ UJJAWALA: Odam savdosini oldini olish, odam savdosi va tijorat maqsadidagi jinsiy eksplutatsiya qurbonlarini qutqarish, rehabilitatsiya qilish hamda qayta integratsiya qilishning kompleks dasturi;

✓ Sakhi Niwas – Hindistonning turli mintaqalarida ushbu dastur nomi ostida uylaridan uzoqda jylashgan shaharlarda ishlaydigan ayollar va ularning farzandlari qolishi mumkin bo'lgan yotoqxona ijaraga beish dasturi[9];

✓ SWADHAR Greh - Ayollar va bolalar taraqqiyoti vazirligining muhim dasturi bo'lib, u og'ir ahvolda bo'lgan ayollarga, ayniqsa oilasi tomonidan tashlab ketilgan bevalar, qamoqdan ozod qilingan va oilasining yordamisiz mahkum, tabiiy ofatlardan omon qolgan, odam savdosi qurboni bo'lgan xotin-qizlarga mo'ljallangan[10].

Yuqorida sanab o'tilgan afzalliklarga qaramasdan, Hindistonda ayollarning

ta'lim olishida ko'plab to'siqlar mavjud. Ayollarning ta'lim olishidagi to'siqlarning ba'zilari ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, ular gender stereotip va tengsizliklaridan kelib chiqadi, boshqalari esa iqtisodiy tashvish va cheklovlar bilan bog'liq.

Uzoq vaqt davomida ayollarning ta'lim olishi butun dunyo bo'ylab ilmiy munozaralarda dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Biz odamlarning ta'lim haqida qanday narsani boshqarishning asosiy vositasi ekanligini tez-tez guvohlik berib, davlatida yosh avlodni tarbiyalash maqsadida ko'plab in

256 из 774

maktablar barpo etildi[11]. Biroq ayrim sabablar tufayli hali ham ko'plab ayol-qizlar ta'lim olishi masalasi to'siqlarga duch kelmoqda, jumladan:

- Ish joyidagi diskriminatsiya;
- Gender tengsizliklari;
- Moliyaviy ekspluatatsiya;
- Akademiklarga kamroq qiziqish;
- Yoshlikda turmush qurish;
- Oilaviy ferma yoki biznesda ishlash va boshqalar.

Mazkur omillarga qo'shimcha ravishda, xotin-qizlar, asosan shahar chetida istiqomat qiluvchilar turli sabablarga ko'ra maktabni tashlab ketishadi, jumladan, yaqin atrofdagi o'quv markazlarining yetishmasligi, xavfli transport turlari va xotin-qizlar uchun alohida xojatxonalarning yetishmasligi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mustaqillikdan so'ng hind hukumati tomonidan xotin-qizlar ta'limiga alohida e'tibor qaratildi va shu maqsadda bir nechta ayollar ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga yordam beruvchi dasturlar shakllantirildi. Jamiyatda hanuz xotin-qizlar ta'lim olish masalasiga qarshi ayrim to'siqlar bo'lishiga qaramasdan, xotin-qizlar ta'lim salohiyati oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. [https://www.worldometers.info/worldpopulation/#:text=8%20Billion%20\(2022\),according%20to%20the%20United%20Nations.](https://www.worldometers.info/worldpopulation/#:text=8%20Billion%20(2022),according%20to%20the%20United%20Nations.)
2. <https://countrymeters.info/en/World>
3. <https://www.hercircle.in/engage/get-inspired/trending/women-education-in-india-history-and-education-status-of-women-in-india-4031.html>
4. <https://www.constitutionofindia.net/articles/article-45-provision-for-early-childhood-care-and-education-to-children-below-the-age-of-six-years/>
5. <https://www.collegesearch.in/articles/womenseducation#:~:text=Despite%20the%20Indian%20government's%20strong,million%20women%20remain%20illiterate%20today.>
6. <https://wcd.nic.in/schemes-listing/2405>



7. Beti Bachao Beti Padhao | Ministry of Women & Child Development
<https://wcd.nic.in/bbbp-schemes>
8. <https://wcd.nic.in/schemes/archive-one-stop-centre-scheme>
9. <https://wcd.nic.in/schemes/sakhi-niwas>
10. SWADHAR Greh (A Scheme for Women in Difficult Circumstances) | Ministry of Women & Child Development.
<https://wcd.nic.in/schemes/swadhar-greh-scheme-women-difficult-circumstances>
11. <https://pib.gov.in/PressReleaseIframePage.aspx?PRID=1881515>

JAHON TARIXINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Hamdamov Abdulaziz
Andijon davlat universiteti
Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada jahondagi xalqning paydo bo'lishiga doir nazariy yondashuvlar o'rganilib, tahlil qilinadi. Etnos va etniklik, etnogenez va etnik tarix muammosiga doir nazariy-metodologik qarashlar primordializm, konstruktivizm va instrumentalizm yondashuvlari asosida ko'rib chiqildi. Bu yondashuvlarni tahlil qilishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek xalqi va uning shakllanishi bilan bog'liq qarashlarning bugungi taqdiri, kelajakdagi rivoji qaysi yo'l orqali rivojlanishi maqbul ekanligini ochib berishdan iborat.

Kalit so'zlar: Primordializm, konstruktivizm, instrumentalizm, etnos nazariyasi, etniklik, ilmiy qarash, konsepsiya, metodologiya, tarixshunoslik, etnologiya.

Abstract: The theoretical approaches to the emergence of people in the world are studied and analyzed in the article. Theoretical-methodological views on the problem of ethnos and ethnicity, ethnogenesis and ethnic history were considered based on the approaches of primordialism, constructivism and instrumentalism. The main goal of the analysis of these approaches is to reveal the current fate and future development of the Uzbek people and views related to its formation.

Key words: Primordialism, constructivism, instrumentalism, theory of ethnos, ethnicity, scientific view, concept, methodology, historiography, ethnology.

Аннотация: В статье исследуются и анализируются теоретические подходы к возникновению людей в мире. Рассмотрены теоретико-методологические взгляды на проблему этноса и этничности, этногенеза и этнической истории, основанные на подходах примордиализма, конструктивизма и инструментализма. Основная цель анализа этих подходов - выявить нынешнюю судьбу и будущее развитие узбекского народа и взгляды, связанные с его формированием.

Ключевые слова: примордиализм, конструктивизм, инструментализм, теория этноса, этничность, научный взгляд, концепция, методология, историография, этнология.

KIRISH

Jahonda ilm-fan rivoji bilan bir qatorda insoniyatning kelib chiqishi, uning